

GINKO BILOBA L O‘SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI, TARAQALISHI VA AHAMIYATI

Kimsanova Gulira’no Zuxridin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. *Ginkgo biloba o'simligi qadimiy va noyob daraxt turi bo'lib, bu o'simlik bugungi kunda mavjud bo'lgan yagona turdir. Ginkgo biloba nafaqat tarixiy va ekologik ahamiyati, balki farmatsevtika sohasida ham muhim o'rin tutadi.*

Kalit so'zlar: *sporofill, endosperm, megasporofill, mikrosporofill, ikkilamchi yo'g'on ichak, ayol, zigota.*

Аннотация. *Растение Гинкго двулопастный (Ginkgo biloba) — древний и редкий вид деревьев, и это растение — единственный вид, существующий сегодня. Гинкго двулопастный занимает большое место не только по своему историческому и экологическому значению, но и в фармацевтической сфере.*

Ключевые слова: *спорофилл, эндосперм, мегаспорофилл, микроспорофилл, вторичная толстая кишка, самка, зигота.*

Annotation. *Ginkgo biloba (Ginkgo biloba) plant is an ancient and rare tree species, and this plant is the only species that exists today. Ginkgo biloba occupies a great place not only in its historical and ecological importance, but also in the pharmaceutical field.*

Key words: *sporophyll, endosperm, megasporophyll, microsporophyll, secondary large intestine, female, zygote.*

Ginkgo biloba, dunyoda faqat bitta turi mavjud bo'lgan o'simlik bo'lib, ginkgo o'simliklar oilasining yagona vakili hisoblanadi. Bu o'simlik qadimiy tarixga ega bo'lib, 250 million yildan ko'proq vaqt avval paydo bo'lgan. Ginkgo biloba o'simligi o'tmishda keng tarqalgan bo'lsa-da, hozirgi kunda tabiiy sharoitda faqatgina Osiyo, xususan Xitoy va Yaponiya hududlarida uchraydi. Ginkgo bilobaning tarixi, morfologiyasi va ekologiyasi haqida ma'lumotlar faqatgina biologiya va botanika sohalarida emas, balki tibbiyot, ekologiya va tarixshunoslikda ham keng o'rganilgan. Ginkgo biloba — ikki uyli, ya'ni erkak va urg'ochi daraxtlardan tashkil topgan o'simlik. U daraxt shaklida bo'lib, balandligi 20-35 metrga yetishi mumkin, ba'zan 50-60 metr balandlikka ham yetadi. Daraxtning yoshi va o'sish sur'ati juda sekin, ammo uzoq umr ko'ruvchi xususiyatga ega. Ginkgo biloba o'simliklari 1000 yil va undan ko'proq vaqt davomida yashashi mumkin. Ginkgo bilobaning barglari keng, yozda yashil rangda bo'ladi va kuzda sariqqa burkanadi. Yaproqlari o'zgacha shaklga ega bo'lib, ikki yarimdan tashkil topgan yelpig'ichga o'xshash va yozda xiralashmaydi. Yaproqlarining bunday tuzilishi o'simlikni boshqa daraxtlardan farqlantiradi.

Ginkgosimonlar ajdodi (sinfi) — Ginkgoopsida. Bu ajdodga o'tmishdan saqlanib kelayotgan bitta oila (Ginkgodoshlar — Ginkgoaceae) ga mansub bitta monotip relik tur (Ginkgo biloba) kiradi. Ginkgodoshlar oilasining 17 ga yaqin turkumlarining vakillari qazilma holda topilgan. Ular orasida eng qadimgisi — sfenobayeralar bo'lib, perm davriga oid qatlamlardan topilgan. Ginkgodoshlar bo'r davridan boshlab tabiatda kamayib borgan.

Tabiiy sharoitda ginkgo faqat Sharqiy Xitoyning Tyan-mu Shan tog'ida ozroq maydonda saqlanib qolgan. So'nggi paytlarda Xitoydan ginkgoning ikkinchi turi topilganligi haqida ma'lumotlar bor. Ginkgo so'zi yapon tilidan olingan bo'lib, “kumushrang o'rik” yoki “kumushrang meva” degan ma'noni anglatadi. Yaponiya, Xitoyda o'stirilgan. 1730-yillarda u G'arbiy Yevropaga, 1780-yillardan keyin esa Shimoliy Amerikaga keltirilgan. 1771-yilda K.Linney bu o'simlikka Ginkgo biloba L. deb ilmiy nom bergan. Ko'p mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham 1920-yildan boshlab manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. Dastlab Samarqandga 1870-yillarda keltirilgan. Ginkgo biloba — balandligi 30 metrdan oshadigan, qishda bargini to'kadigan siyrak shox-shabbali daraxt. Barglari oddiy, uzun bandli, yaprog'i yelpig'ichsimon, ikki bo'lakli. Poyasining o'zak qismi kam taraqqiy etgan. Lekin kambiy va po'stloq parenximasi yaxshi rivojlangan. Ginkgoning igna bargli daraxtlardan farqi shundaki, unda smola hosil bo'lmaydi.

Tibbiyotda qo'llanilishi va kimyoviy tarkibi. Oxirgi yillarda Ginkgo biloba daraxti bargidan ajratib olinayotgan birikmalar farmokoterapiya sohasida bir qancha nerv va qon tomirlari kasalliklarida, ateroskleroz, xotirani yaxshilash va diqqatni jamlashda keng foydalanilmoqda.

Ginkgo — ikki uyli o'simlik. Qulay sharoitda ginkgo 20—30 yoshlarida chang yoki urug' bera boshlaydi. Ginkgolarda mikrostrombil va megastrombil qubbalar qisqargan shoxlarda joylashgan.

Ginkgo biloba o'simligi nafaqat ekologik, balki tibbiy va madaniy ahamiyatga ega qadimiy daraxtdir. Uning botanik tavsifi, tarqalishi va turli sohalarda qo'llanilishi o'simlikni dunyodagi eng muhim va qadimiy organizmlardan biri sifatida ajratib turadi. Ginkgo biloba o'simligi, uning tibbiy xususiyatlari va ekologik roli bilan insoniyatga katta foyda keltirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Ginkgolar uzoq umr ko'ruvchi daraxtlardan hisoblanadi. Xitoy, Koreya va Yaponiyada 1000 yoshdan ortiq tuplari bor. Ginkgo urug'i yordamida va qalamchasidan ko'payadi. Ginkgo havosi ifloslangan joylarda ham bemalol o'saveradi va kasalliklarga chidamli. Shuning uchun uni manzarali o'simlik sifatida o'stirish

maqsadga muvofiq. Urug'ining tashqi yumshoq etli qavati iste'mol qilinadi. Filogenetik jihatdan ular kordaitlarga ancha yaqin turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'.E.Xo'janazarov, X.Mavlonov, J.S.Sadinov. Botanika o'simliklar sistematikasi (2013). Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
2. C.M.Mustafayev. "Botanika". Toshkent, O'zbekiston – 2024.
3. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoirra Rafiqova. Botanika asoslari (o'quv qo'llanma). Toshkent - 2009.
4. Bakhronova, D., Alavutdinova, N., Israilova, S., & Vilchis, V. V. Color Lexemes in Context: Cognitive and Cultural Explorations.
5. Saodat, I. Ko 'k' leksemasining etimologik tavsifi. O'zbekiston, 75.
6. Israilova, S. (2022). "Ko 'k' leksemi semantikasini yoritishda tezaurus modelidan foydalanish. Computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).
7. Джалилова, С. М. (2024, November). Цветовые образы в испанском языке: этнолингвистические аспекты. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 150-151).
8. Shamahmudova, A., & Djalilova, S. (2024). Retracted: Discourse strategies of ecology and environment. In BIO Web of Conferences (Vol. 84, p. 04025). EDP Sciences.
9. Джалилова, С. М. (2024, November). Лингвокультурные особенности пословиц испанского языка. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 331-333).
10. Sadikova, B. (2024, November). Antinomy and Correlation in Italian Paremiology: Semantic Analysis. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 124-126).
11. Makhmurovna, S. B., & Dahiya, R. Analysis of Italian and Russian Paroemias Reflecting the Concept of Time.
12. Tkacheva, A. A. (2025). The Use of Digital Storytelling as a Tool for Enhancing Sociocultural Competence University Students Learning Spanish in Uzbekistan. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 40, 293-312.
13. Tkacheva, A. The complex conceptual analysis of concepts "masculinity" and "femininity" in Spanish.
14. Gazanfarovna, B. D., & Abdusamiyevna, V. A. (2022). Cognitive linguistics as an interdisciplinary study. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 133-135.